

**THE INTERPRETATION OF THE SCIENCE OF BADI' IN AL-QAZWINI'S
"TALKHIS AL-MIFTAH"****Buzakhro M. Begmatova***Associate Professor, PhD in Law**Department of Arabic Studies**Tashkent State University of Oriental Studies*buzahro73y@mail.ru*Tashkent, Uzbekistan***Humoyun G. Sulaymonov***Master's Student at the Higher School of Arab Studies**Tashkent State University of Oriental Studies**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Arabic rhetoric, science of badi', Talkhis al-Miftah, al-Qazwini, rhetorical devices, verbal embellishments, semantic embellishments, jinas, saj', tibaq, Arabic literature.

Received: 08.05.26**Accepted:** 09.05.26**Published:** 10.05.26

Abstract: This article examines the interpretation of the science of badi' in the work "Talkhis al-Miftah" by the prominent Arab scholar Jalal al-Din al-Qazwini. The study analyzes the essence of the science of badi', its role within the system of Arabic rhetoric, and its significance in embellishing literary discourse. Particular attention is given to the classification of verbal and semantic rhetorical devices presented in the work and their function in enhancing the aesthetic quality of speech. Based on various examples from classical Arabic literature, the research highlights the importance of al-Qazwini's contribution to the development of Arabic rhetoric and literary studies.

QAZVINIYNING "TALXIS UL-MIFTAH" ASARIDA BADI' ILMINING YORITILISHI**Buzahro M. Begmatova***Dotsent, Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)**Arabshunoslik oliy maktabi**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*buzahro73y@mail.ru*O'zbekiston, Toshkent***Humoyun G'. Sulaymonov***Arabshunoslik oliy maktabi magistranti*

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: balog'at ilmi, badi' ilmi, Talxis ul-Miftah, Qazviniy, lafziy san'atlar, ma'naviy san'atlar, jinos, saj', tiboq, muqobala, arab adabiyoti.

Annotatsiya: Mazkur maqola arab balog'at ilmining muhim namoyandalaridan biri bo'lgan Jaloliddin al-Qazviniyning "Talxis ul-Miftah" asarida badi' ilmining yoritilishiga bag'ishlangan. Tadqiqotda badi' ilmining mohiyati, uning balog'at tizimidagi o'rni hamda nutqni bezashdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, asarda keltirilgan lafziy va ma'naviy go'zallashtiruvchi san'atlarning tasnifi, ularning badiiy nutqdagi vazifasi va qo'llanish xususiyatlari misollar asosida yoritiladi. Tadqiqot natijasida Qazviniy tomonidan badi' san'atlar tizimlashtirilgani va ularning arab adabiyoti hamda balog'at ilmi rivojidadagi ahamiyati ko'rsatib beriladi.

ОСВЕЩЕНИЕ НАУКИ БАДИ' В ПРОИЗВЕДЕНИИ «ТАЛХИС АЛЬ-МИФТАХ» АЛЬ-КАЗВИНИ

Бузахро М. Бегматова

Доцент, доктор философии (PhD) в области права

Высшая школа арабистики

Ташкентский государственный университет востоковедения

buzahro73y@mail.ru

Ташкент, Узбекистан

Хумоюн Г. Сулайманов

Магистрант Высшей школы арабских исследований

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: арабская риторика, наука бадии', Талхис аль-Мифтах, Казвини, риторические приёмы, словесные украшения, смысловые украшения, джинас, садж', тибак, арабская литература.

Аннотация: Данная статья посвящена изучению освещения науки бадии' в произведении «Талхис аль-Мифтах» известного арабского учёного Джалал ад-Дина аль-Казвини. В исследовании рассматриваются сущность науки бадии', её место в системе арабской риторики и роль в украшении художественной речи. Также анализируются лексические и смысловые риторические приёмы, представленные в данном труде, их классификация и особенности применения на примерах из классических источников. В результате исследования показано значение труда аль-Казвини для развития науки арабской риторики и литературоведения.

Kirish. Arab balog‘at ilmi nutqning go‘zalligi va ta‘sirchanligini o‘rganadigan muhim ilmiy yo‘nalishlardan biridir. Balog‘at ilmi uch asosiy bo‘limdan tashkil topadi: maoniy, bayon va badi‘iylari. Ularning ichida badi‘iylar ilmi nutqni turli badiiy vositalar yordamida bezash, uni yanada go‘zal, ravon va ta‘sirchan qilish usullarini o‘rganadi.

Arab balog‘at ilmining rivojida ko‘plab olimlar muhim o‘rin tutgan bo‘lsa-da, ulardan biri Jaloliddin Abu Abdulloh al-Qazviniiy hisoblanadi. Uning “Talxis ul-Miftah” asari balog‘at ilmining eng mashhur va muhim manbalaridan biri sifatida e‘tirof etiladi. Mazkur asar aslida Sakkokiyning “Miftah ul-ulum” asarining qisqartirilgan va tizimlashtirilgan shakli bo‘lib, unda balog‘at ilmining asosiy nazariy masalalari tartibli ravishda bayon etilgan.

“Talxis ul-Miftah” asarida badi‘iylar ilmi alohida bo‘lim sifatida o‘rganilib, nutqni bezovchi badiiy san‘atlar lafziy va ma‘naviy go‘zallashtiruvchi san‘atlar ko‘rinishida tasnif qilinadi. Ushbu san‘atlar badiiy nutqning estetik qiymatini oshirish, uning ta‘sirchanligini kuchaytirish va mazmuniy boyligini namoyon etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Badi‘iylar ilmi arab adabiyotshunosligida qadimdan o‘rganib kelinadi. Dastlab bu ilmiy yo‘nalish Ibn al-Mu‘tazz, Qudama ibn Ja‘far, Abu Hilol al-Askariy kabi olimlar tomonidan shakllantirilgan. Keyinchalik Sakkokiy, Qazviniiy, Taftazoniiy kabi olimlar bu ilmni yanada rivojlantirib, uni mukammal nazariy tizimga solganlar.

Xususan, Qazviniiyning “Talxis ul-Miftah” asari balog‘at ilmining eng muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Unda badiiy san‘atlar tizimli ravishda bayon qilinib, ularning nutqdagi vazifasi ilmiy jihatdan izohlangan.

Mazkur tadqiqot jarayonida tavsifiy, tahliliy va qiyosiy metodlardan foydalanildi. Asarda keltirilgan badiiy san‘atlar tahlil qilinib, ularning nutqni bezashdagi o‘rni va estetik vazifalari o‘rganildi.

Natijalar. Balog‘at ilmi arab tilshunosligi va adabiyotshunosligining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, u nutqning go‘zalligi, ta‘sirchanligi va vaziyatga mosligini o‘rganadi. Ushbu ilmiy yo‘nalish an‘anaviy ravishda uch asosiy bo‘limdan tashkil topadi: maoniy, bayon va badi‘iylar. Shulardan badi‘iylar ilmi nutqni ziynatlash, unga husn va latofat baxsh etish yo‘llarini o‘rgatuvchi fan sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

“Badi‘iylar” so‘zi lug‘aviy jihatdan “yangilik yaratish”, “ilgari bo‘lmagan narsani ixtiro qilish” ma‘nolarini anglatadi. U “بدع الشيء وأبدعه” kabi iboralar bilan bog‘liq bo‘lib, misli ko‘rilmagan yangilikni ifodalaydi. Istilohiy ma‘noda esa badi‘iylar ilmi nutqni yanada ravon, nafis, go‘zal va ta‘sirchan qilishga xizmat qiladigan usul va vositalarni o‘rganadi. Boshqacha aytganda, bu ilmiy yo‘nalish so‘z va ma‘no ziynatlari orqali nutqqa joziba, ohangdorlik va ruhiy ta‘sir bag‘ishlaydi. (Ahmad Hoshimi, 2005, p. 408)

Manbalarda qayd etilishicha, badi' ilmi bo'yicha ilk mustaqil asar yozgan olim Abdulloh ibn al-Mu'tazz bo'lgan. Keyinchalik Qudoma ibn Ja'far, Abu Hilol al-Askariy, Sakkokiy va Qazviniy singari olimlar tomonidan bu ilm rivojlantirilib, mustahkam nazariy tizimga solingan. Xususan, Qazviniyning "Talxis ul-Miftah" asarida badi' ilmi mukammal tarzda tartibga solinib, uning asosiy turlari ilmiy jihatdan sharhlab berilgan.

Badi' ilmi asosan ikki katta qismga bo'linadi:

Birinchisi, lafziy go'zallashtiruvchi san'atlar bo'lib, bunda so'zning shakli, talaffuzi, ohangi, tovush uyg'unligi va qofiyaviy xususiyatlari asosiy o'rin tutadi. Bu turdagi san'atlarda nutqning tashqi shakli go'zalligi kuchayadi.

Ikkinchisi, ma'naviy go'zallashtiruvchi san'atlar bo'lib, bunda asosiy e'tibor so'zning mazmuniga, ma'nolar o'rtasidagi munosabatga, qarama-qarshilik, uyg'unlik va yashirin ma'no qatlamlariga qaratiladi. Bu turdagi san'atlar nutqning ichki mazmuniy qudratini oshiradi.

Lafziy go'zallashtiruvchi san'atlar

Jinos (الجناس) – Lafziy san'atlar ichida eng mashhur va ko'p uchraydigan turlardan biri jinosdir. Jinos ikki lafzning shakl va talaffuzda bir xil yoki o'xshash bo'lib, ma'noda farqlanishidan hosil bo'ladi. Bu san'at nutqqa ohangdorlik, latofat va badiiy ta'sir bag'ishlaydi. (Balagha, 2005, p. 403)

صَلَّيْتُ الْعِشَاءَ بَعْدَ تَنَاوُلِ الْعِشَاءِ

(Ahmad Iskandar, 2024, p. 447)

Bu misolda الْعِشَاءُ birinchi o'rinda "xufton namozi", ikkinchi o'rinda esa الْعِشَاءُ "kechki ovqat" ma'nosida kelgan. So'zlar shaklan juda yaqin, ammo ma'nosi turlicha. Shu sababli bu yerda jinos san'ati yuzaga kelgan.

Jinosning ilmiy qiymati shundaki, u arab tilining fonetik va semantik imkoniyatlarini namoyon etadi. O'zbek tilida buni omonim so'zlar bilan qiyoslash mumkin, biroq jinos oddiy leksik hodisa emas, balki badiiy maqsad asosida qo'llangan stilistik vositadir.

Radd al-'ajz 'ala s-sadr (ردّ العجز على الصدر) – Lafziy san'atlarning yana bir muhim turi radd al-'ajz 'ala s-sadr, ya'ni "oxirni boshiga qaytarish"dir. Bu san'atda bayt yoki jumlaning oxirida kelgan lafz, ma'no yoki unga yaqin shakl bosh qism bilan bog'lanadi. Natijada matnning avvali va oxiri o'zaro uyg'unlashib, nutqda ichki mustahkamlik hosil bo'ladi.

وليسَ إلى داعي الندى بسريع *** سريعٌ إلى ابنِ العمِّ يَلْطِمُ وجهَهُ

Tarjimasi: “U amakivachchasining yuziga urishga shoshiladi, ammo yordam so‘raganga shoshilmaydi.” Bu baytda سريع lafzi birinchi misraning boshida va ikkinchi misraning oxirida takrorlangan. Shu bilan baytning oxiri boshiga ulanib, radd al-‘ajz san‘ati hosil bo‘lgan.

Saj’ (السجع) – Saj’ nasriy nutqda jumlar oxiridagi so‘zlarning qofiyadosh yoki ohangdosh kelishidir. U nasrdagi qofiya vazifasini bajaradi hamda matnga musiqiylik bag‘ishlaydi.

مَنْ عَاشَ مَاتَ، وَمَنْ مَاتَ فَاتَ، وَكُلُّ مَا هُوَ آتٍ آتٍ

(Ahmad Iskandar, 2024, p. 452)

Tarjimasi: “Kim yashasa o‘ladi, kim o‘lsa ketadi, keladigan har bir narsa albatta keladi.” Bu yerda آت – فات – مات so‘zlari bir xil ohangda tugab, saj’ san‘atini yuzaga keltirgan. Ushbu ohangdorlik jumлага ta‘sirchanlik va hikmatli uslub beradi.

Qalb (القلب) – Qalb san‘ati so‘z yoki jumla tarkibidagi so‘zlar o‘rin almashganda ham ya‘ni she‘rni teskari o‘qilganda ma‘no va badiiy uyg‘unlik saqlanib qolishini bildiradi. Bu san‘at nutqda o‘yinli, murakkab va chuqur badiiy shakl yuzaga keltiradi.

وَهَلْ كُلُّ مَوَدَّنُهُ تَدْوُمٌ *** مَوَدَّنُهُ تَدْوُمٌ لِكُلِّ هَوْلٍ

(Ibn Shihna, n.d., p. 248).

Tarjimasi: “Uning do‘stligi har qanday mushkul holatda davom etadi. Ammo har qanday do‘stlik ham davom etaveradimi?” Bu baytda iboralar o‘rni almashgani holda ham ma‘no saqlanib qolgan. Shu bilan qalb san‘ati hosil bo‘lgan. Qalb san‘ati ko‘proq she‘riyatda uchraydi va shoirning lafz ustidagi mahoratini namoyon qiladi.

Husn at-taqsim (حسن التقسيم) – Husn at-taqsim bayt ichidagi ibora va bo‘laklarning vazn, uzunlik va ritm jihatidan teng taqsimlanishidir. Bu san‘at matnga musiqiy muvozanat va nafislik beradi.

بِكَابَتِي، مُتَفَرِّدٌ بَعْنَائِي *** مُتَفَرِّدٌ بِصَبَابَتِي، مُتَفَرِّدٌ

(Ahmad Iskandar, 2024, p. 464)

Tarjimasi: “Ishq iztirobimda yolg‘izman, qayg‘umda yolg‘izman, mashaqqatimda ham yolg‘izman.” Bu misolda uchta bo‘lak bir xil tuzilishda kelgan. Shu tenglik baytga ohangdorlik va tartib bag‘ishlaydi.

Ma'naviy go'zallashtiruvchi san'atlar

Tiboq (الطباق) – Ma'naviy san'atlarning eng mashhurlaridan biri tiboqdir. U bir-biriga zid yoki qarama-qarshi ma'nodagi so'zlarni birga qo'llash orqali hosil bo'ladi. Tiboq ma'noni kuchaytiradi, diqqatni tortadi va nutqning estetik qiymatini oshiradi. Masalan: اللئيلُ والنَّهَارُ

Muqobala (المقابلة) – Muqobala tiboqning kengroq va murakkabroq ko'rinishi bo'lib, bunda bir necha ma'nolar zikr qilinib, ularga mos ravishda qarama-qarshi ma'nolar tartib bilan keltiriladi.

الصادق يَصْدُقُ فِي الشَّدَّةِ وَالكَاذِبُ يَكْذِبُ فِي الرَّخَاءِ

Tarjimasi: “Rostgo'y odam qiyinchilikda rost gapiradi, yolg'onchi esa farovonlikda ham yolg'on gapiradi.” Bu gapda ikki juft qarama-qarshi ya'ni (antonym) ma'nolar tartib bilan keltirilgan: الكاذب (yolg'onchi) va الصادق (aqlli), الشَّدَّة (qiyinchilik) va الرَّخَاء (farovonlik), يَصْدُقُ (rost gapiradi) va يَكْذِبُ (yolg'on gapiradi).

Muro'at an-nazir (مراعاة النظير) – Muro'at an-nazir bir-biriga zid emas, balki o'zaro bog'liq va munosib bo'lgan tushunchalarni birga zikr etish san'atidir. Bu san'at ma'nodagi uyg'unlik va tabiiy bog'liqlikni ko'rsatadi. الكتابُ والقلمُ والدفترُ bu misolda kitobShu munosabat muro'at an-nazir san'atini yuzaga chiqaradi. Abu Nuvosning quyidagi bayti ham bunga misoldir:

وَيَلْطَمُ الْوَرْدَ بَعْنَابٍ *** يَيْكِي فَيَذْرِي الدَّرَّ مِنْ نَرْجِسٍ

(Ahmad Iskandar, 2024, p. 495)

Tarjimasi: “U yig'lab nargisdek ko'zlardan durdek yosh to'kadi, atirguldek yonoqlarini unnobdek lablari bilan uradi.” Bu baytda nargis, atirgul, unnob kabi o'simlik va go'zallik bilan bog'liq obrazlar bir-biriga mos holda jamlangan. Shu sababli muro'at an-nazir san'ati hosil bo'lgan.

Tavriya (التورية) – Tavriya bitta lafzning ikki ma'nosidan foydalanib, uning yaqin va tez tushuniladigan ma'nosini emas, balki uzoq va yashirin ma'nosini nazarda tutishdir. Bu san'at o'quvchini fikrlashga undaydi. Masalan:

دَعُونِي فَإِنِّي أَكُلُ الْعَيْشَ بِالْجُبْنِ

(Ahmad Iskandar, 2024, p. 403)

Tarjimasi: “Meni qo'yinglar, men hayotni 'jubn' bilan o'tkazaman.” Bu yerda الجُبْن lafzi ikki ma'noga ega: birinchisi “pishloq”, ikkinchisi “qo'rqqoqlik”. Baytda tashqi ma'no “pishloq” bo'lib

ko'rinso-da, aslida shoir "qo'rqoqlik" ma'nosini nazarda tutmoqda. Ana shu yashirinlik tavriyaning mohiyatidir.

Laff va nashr (اللف والنشر) – balog'at ilmida ma'naviy badiiy san'atlardan biri hisoblanadi. Ushbu san'atda avval bir nechta narsa yoki tushuncha jamlab zikr qilinadi, so'ngra ularning har biriga tegishli tavsif yoki ma'nolar ketma-ket bayon qilinadi. Shu tariqa nutqda mantiqiy izchillik, tartib va badiiy uyg'unlik yuzaga keladi. Laff va nashr uslubi arab adabiyotida, ayniqsa she'riyatda keng qo'llanib, tasvirni yanada ravshan va ta'sirchan qilishga xizmat qiladi.

Masalan, quyidagi she'riy misolda bu san'at yaqqol namoyon bo'ladi:

عيونها كالنرجس، وخذها كالورد، وشعرها كالليل

Ushbu baytning ma'nosi: "Uning ko'zlari nargisdek, yonoqlari atirguldek, sochlari esa tun kabi qoradir." Bu misolda shoir avval ma'shuqaning go'zalligiga oid bir nechta unsurlarni — ko'z, yonoq va sochni zikr qiladi. Keyin esa ularning har biriga mos keluvchi tasvirlarni keltiradi: ko'z nargis guliga, yonoq atirgulga, soch esa qorong'i tunga o'xshatiladi. Natijada baytda tasvirlar o'zaro uyg'un holda joylashib, ma'no izchilligi va badiiy go'zallik yuzaga keladi. Shu sababli mazkur bayt laff va nashr san'atining sodda va tushunarli namunasi hisoblanadi.

Jam' (الجمع) – Jam' balog'at ilmida ma'naviy badiiy san'atlardan biri bo'lib, unda bir nechta narsa yoki tushuncha bitta umumiy hukm yoki bitta sifat ostida jamlab zikr qilinadi. Bu uslub orqali turli narsalar o'rtasidagi mushtarak jihat ko'rsatilib, nutqning mazmuni yanada kuchli va ta'sirchan ifodalanadi. Jam' san'ati ko'pincha she'riyatda va hikmatli iboralarda uchraydi. Unda turli predmet yoki hodisalar bitta ma'no bilan bog'lanib, umumiy xulosa chiqariladi. Shu sababli jam' san'ati nutqda mantiqiy uyg'unlik va badiiy yaxlitlik hosil qiladi. Masalan, Abu Atohiya quyidagi baytida jam' san'atini qo'llagan:

مُفْسِدَةٌ لِلْمَرْءِ أَيُّ مُفْسِدَةٍ *** إِنَّ السَّبَابَ وَالْفَرَاعَ وَالْجِدَّةَ

Ushbu baytning ma'nosi: "Albatta, yoshlik, bekorchilik va boylilik insonni naqadar yomon buzuvchi omillardir." Bu baytda uch xil tushuncha – yoshlik, bo'sh vaqt va boylilik bir hukm ostida jamlangan. Shoir ularning barchasini insonni buzuvchi omillar sifatida tasvirlab, bitta umumiy ma'noda birlashtirgan. Shu orqali jam' san'ati yuzaga kelgan va baytning mazmunini ta'siri kuchaygan.

Mubolag‘a (المبالغة) – Mubolag‘a balog‘at ilmida ma‘naviy badiiy san‘atlardan biri bo‘lib, unda biror sifat yoki holat odatiy me‘yordan ortiq darajada kuchaytirib tasvirlanadi. Bu uslubning maqsadi o‘quvchi yoki tinglovchining tasavvurida kuchli taassurot uyg‘otish hamda tasvirni yanada jonli va ta‘sirchan qilishdir. Mubolag‘a orqali shoir yoki notiq biror voqea yoki sifatni haddan tashqari kuchli qilib tasvirlaydi, shu orqali nutqning badiiy qiymati ortadi. Arab adabiyotida mubolag‘a san‘ati ko‘pincha qahramonlik, saxovat yoki qo‘rquv kabi sifatlarni ifodalashda qo‘llanadi. Masalan, Abu Nuvvos quyidagi baytida mubolag‘a san‘atidan foydalanadi: (Qazwini, 2020, p. 193)

لُخْأَفُكَ النُّطْفَةُ الَّتِي لَمْ تُخْلَقْ *** وَأَخَافُ أَهْلَ الشِّرْكِ حَتَّى إِنَّهُ

(Sa‘duddin al-Taftazani, 2017, p. 604)

Ushbu baytning ma‘nosi: “Shirk ahlini shunchalik qo‘rqitdimki, hattoki hali yaratilmagan nutfa ham mendan qo‘rqadi.” Bu misolda qo‘rquv holati haddan tashqari kuchaytirib tasvirlangan. Chunki hali yaratilmagan nutfaning qo‘rqishi na aqlan, na odatan mumkin. Shu orqali shoir o‘zining qudratini juda kuchli darajada tasvirlab, mubolag‘a san‘atini yuzaga keltirgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, badi‘ ilmi arab balog‘at ilmining muhim bo‘limlaridan biri bo‘lib, nutqni go‘zallashtirish, uning ta‘sirchanligi va badiiy qiymatini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu ilm orqali so‘z va ma‘no o‘zaro uyg‘un holda qo‘llanib, nutq yanada nafis, ravon va estetik jihatdan mukammal shaklga ega bo‘ladi. Badi‘ ilmi asosan ikki katta qismga bo‘linadi: lafziy go‘zallashtiruvchi san‘atlar va ma‘naviy go‘zallashtiruvchi san‘atlar. Lafziy san‘atlarda so‘zning tashqi shakli, tovush uyg‘unligi va ohangdorligi muhim o‘rin tutsa, ma‘naviy san‘atlarda esa ma‘nolar o‘rtasidagi munosabat, qarama-qarshilik yoki uyg‘unlik asosiy rol o‘ynaydi.

Qazviniyning “Talxis ul-Miftah” asarida badi‘ ilmi keng va tizimli tarzda yoritilgan bo‘lib, unda badiiy san‘atlarning turli ko‘rinishlari nazariy jihatdan tushuntirilib, ko‘plab misollar bilan asoslab berilgan. Jinos, saj‘, laff va nashr, jam‘, mubolag‘a, tiboq, muqobala va muro‘atun nazir kabi san‘atlar nutqni yanada ta‘sirchan va mazmunan boy qilishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu san‘atlar orqali so‘z nafaqat ma‘no yetkazish vositasi, balki estetik va badiiy ta‘sir kuchiga ega bo‘lgan ifoda shakliga aylanadi.

Shunday qilib, badi‘ ilmi arab adabiyoti va balog‘atining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, nutqning go‘zalligini, mazmuniy chuqurligini va badiiy jozibasini ta‘minlaydi. Ayniqsa, Qazviniy asarida badi‘ san‘atlarining izchil bayon qilinishi ushbu ilmning rivojlanishida muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi. Bu esa arab balog‘at ilmi tarixida “Talxis ul-Miftah” asarining alohida ilmiy ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ibrohimov N., Yusupov M. Arabic Grammar. Vol. 1. – Tashkent: Uzbekistan National Encyclopedia State Scientific Publishing House, 1997. – 453 pages.
2. An-Na'im Arabic-Uzbek Dictionary. – Tashkent: A. Qodiriy, 2003. – 986 p.
3. Muhammad ibn Abdurrahman al-Qazwini. Talkhis al-Miftah. – Tashkent: Qamar-Media, 2020. – 323 pages.
4. Ahmad Hoshimi. Jawahir al-Balagha. – Beirut: Maktabat al-Asriyya, 2005. – 408 p.
5. Jalal al-Din Khatib al-Qazwini. Talkhis al-Miftah. – Istanbul: Ismailaga, 2019. – 312 p.
6. Jalal al-Din Khatib al-Qazwini. Al-Iydah. – Beirut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 2003. – 415 p.
7. Hifni Nasif, Muhammad Diyab, Mustafa Tumum, Sultan Muhammad. Durus al-Balagha.– Istanbul: Dar al-Kutub al-Arabiyya, 2022. – 234 p.
8. Ibn Shihna al-Hanafi. Miat al-Ma'ani wa al-Bayan. Commentary by Dr. Muhammad Nasif. Place and date of publication not provided.
9. Ahmad Iskandar. Kayfa Tutqin al-Balagha. – Mansoura: Dar al-Lulu'a, 2024. –447 p.